

TAFAKKUR PSIXOLOGIK JARAYON VA AQLIY FAOLIYAT SIFATIDA

Ma'ruffjonova Xusnigul

*Andijon Davlat Pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” fakulteti
“Maktabgacha ta’lim pedagogikava psixologiyasi” yo’nalishi 101-guruh talabasi*

Annotatsiya: Bu maqolamiz mazmuni tafakkur haqida bo’lib, biz bu mavziyimizni quyidagi rejalar asosida o’rganamiz:

- tafakkur va uning xususiyatlari;
- tafakkur turlari va shakllari;
- tafakkurning sifatlari va rivojlanishi;

Kalit so’zlar: tafakkur, analiz, sintez, Abstraksiya, tafakkurning ixchamligi va tezligi, determinizm.

Аннотация: Содержание нашей диссертации посвящено мышлению, и мы исследуем эту тему в следующих планах:

- мышление и его особенности;
- виды и формы мышления;
- качества и развитие мышления.

Ключевые слова: мышление, анализ, синтез, абстракция, компактность и скорость мышление, детерминизм.

Abstract: The content of this thesis is about thinking, and we will study this topic on the basis of the following plans:

- thinking and its features;
- types and forms of thinking;
- qualities and development of thinking

Keywords: thinking, analysis, synthesis, abstraction, compactness and speed of thinking, determinism.

KIRISH

Kishining butun hayoti uning oldiga hamisha jiddiy va kechiktirib bo’lmaydigan vazifalar va muammolarni qo’yadi. Bunday muammolarning, qiyinchiliklarning tasodiflarning yuzaga kelishi atrofimizdagи voqelikda hali juda ko’p noma’lum, tushunib bo’lmaydigan kutilmagan, yashirin narsalar borligidan borligidan dalolat beradi. Tafakkur shuning uchun ham zarurki, hayot va faoliyat davomida har bir individ narsalarning qandaydir yangi, ilgari ms’lum bo’lmagan xususiyatlariga duch keladi.

TAFAKKUR MOHIYATI

Tafakkur hamisha hali bilib olinmagan yangilikning ana shunday cheksiz chuqr jihatlariga qaratilgan bo’ladi. Har biro dam tafakkur qilar ekan Buning bilan shu



paytgacha qanndaydir yangilikni, no'malum narsani mustaqi ravishda qayd qiladi. Tafakkur jiddiy ravishda yangilik qidirish va ochishga ijtimoiy jihatdan bog'liq, aloqador psixik jarayondir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilimlardan paydo bo'ladi va hissiy bilim chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi. Tafakkur so'zi arabcha "fikr" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish ma'nolarini bildiradi. Inson borki u fikr yuritish qobiliyatiga ega. Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan foydalanadi va keyin tafakkurga o'tib ketishi mumkin. Biroq istagan tafakkur hatto eng rivojlangan tafakkur ham Hamisha hissiy bilim bilan, ya'ni, sezgi idrok va tafovutlar bilan bog'langan bo'ladi. Tafakkur faoliyati o'zining butun materializing faqat bitta manbadan, ya'ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog'lanadi hamda shu tariqa olamni aks ettiradi. Bu aks ettirishning to'g'riliqi amaliy faoliyat orqali tabiat va jamiyatni o'zgartirish jarayonida uzliksiz tekshirilib turadi. Tafakkur sezgi idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni davom ettiradi va rivojlantiradi hamda ularning chegaralaridan tashqariga chiqib ketadi.

TAFAKKURNING XUSUSIYATLARI

Tafakkurnig til bilan uzviy, chambarchas bog'liqligi inson tafakkurining ijtimoiy, tarixiy mohiyatinin ochiq oydin namoyon qilib beradi. Bilim insoniyat tarixi davomida egallangan barcha bilimlarning izchilligini zarur tarzda taqozo qiladi. Bilimlarning bu tarixiy vorisligi ularni qayd qilish, mustahkamlash va esda saqlashda bir kishidan boshqasiga, avloddan-avlodga o'tkazish yo'li bilan sodir bo'lishi mumkin. Kimning aqliy taraqqiyoti insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida hosil qilgan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muqarrar ravishda amalga oshiriladi. Individning olamni bilish jarayoni ilmiy bilimlarni tarixiy taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan, bevosita ifodalangan, buning natijalarini har bir individ ta'lim olish davomida o'zlashtiradi, bu esa kishining insoniyat bilan munosabatini aynan o'zidir. Tafakkur faoliyati insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida bilimlarni o'zlashtirish uchun ham va mutlaqo yangi bilimlarni egallah dastavval olimlar tomonidan kashf etilishi uchun ham zarur asos bo'lib qoladi.

Dunyonи bilish faoliyati asosan 2 yo'ldan borishi mumkin. Bevosita yo'1 bilan narsa va hodisalarни ayrim xossalari yaxlitligicha his etamiz, shuningdek ilgari sezib, idrok qilgan narsalarni ko'z oldimizga yaqqol tasavvur qilib bilib olamiz. Bu bevosita hissiy bilishdir. Dunyonи hissiy bilishdan tasavvur orqali bevosita bilishga o'tiladi. Narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabat, hamda bog'lanish qonuniyatlarini biz hissiy yo'1 bilan bilmay, faqat bevosita yo'1 bilan tafakkur orqali to'liq va chuqr bilib olamiz. Masalan, allaqanday bir tanaga tegib turgan qo'ldan kelayotgan harakat sezgisi ana shu tananing harorat holatini bir xilda xarakterlab bera olmaydi. Mana shu harorat sezgisi birinchidan mazkur narsaning issiqlik holati bilan, ya'ni qo'lni issiq yoki sovuq narsaga tekkazib turganligicha bog'liq ravishda boshlanadi. Tafakkur tufayli yuqorida

ko'rsatilgan har 2 o'zaro bog'lanish holatini bir-biridan ajratish mumkin. Tafakkur jarayon sifatida psixologik jihatdan tadqiq qilish unday yo bunday bilish natijalarini hosil bo'lishiga olib keladigan ichki, yashirin sabablarini o'rganish demakdir. Tafakkurning bunday natijalari, mahsulotlari masalan, quyidagi omillardir: mazkur o'quvhci masalani yechdimi yoki yechmadimi, o'quvchida masalani yechish g'oyasi, rejasi taxminiy yuzaga keladimi yoki kelmaydimi, o'quvchida yangi tushunchalar yoki boshqa shu kabilar tarkib topadimi yoki tarkib topmaydimi. Psixologiya fani mana shu faktlarni hammasini ichki, ya'ni fikrlash jarayoni jihatidan ochishga harakat qiladi. Buning bilan psixologiya psixik hodisa voqealarni faqat tasvirlab va ifodalab berish bilan cheklanmay, balki ularning qonuniyatlarini ko'rsatib beradi. Bunda psixologiya fani determinizm, ya'ni sababiy bog'lanish prinsipiiga asoslanadi: tashqi sabablar ichki sharoit orqali amalga oshadi.

TAFAKKURNING TURLARI VA SHAKLLARI

Kishining tafakkur faoliyati uchun uning faqat hissiy bilishi bilan o'zaro bog'liqligina muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki til bilan, nutq o'zaro bog'liqligi ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda inson psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o'rtasidagi prinsipial farqlardan biri namoyon bo'ladi. Hayvonlarning elementar, juda sodda tafakkuri hamma vaqt faqat ayoniy harakat tafakkurligicha qoladi. Nutq va tafakkur chambarchas bog'langandir. Odam nutq bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa, fikr qila olmaydi. Nutq fikrlash quolidir. Tafakkur bo'lmasa nutq ham, til ham bo'lishi mumkin emas. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa fikrni ifodalab berib bo'lmaydi. Faqat til yordami bilangina odamlar bir-biriga o'z fikrini aytaladilar. Kishilik jamiyatida fikr almashinuv uchun avvalo bu fikrlar odamlarning ongida mustahkamlanishi zarur, shunda ham til bo'lishi albatta shart. Inson tafakkuri ham tarixiy tarixiy taraqqiyot jarayonida, til yordami bilan bo'ladigan nutq aloqalari o'sdi, tafakkur mantiqiy formalari ishlab chiqildi. Har bir kishining tafakkuri uning butun davri davomida til yordami bilan bo'ladigan nutq aloqalari jarayonida o'sib boradi. Tafakkurning taraqqiyot tarixida tilning roli qanchalik katta bo'lsa, tilning taraqqiyot tarixida ham tafakkurning roli shunchalik kattadir. Grammatika qonunlari, formalari va qoidalarini tuzishda ham ularning takomillashib borishida tafakkur ayniqsa katta ahamiyatga ega. Har bir kishidagi tafakkurning o'sishi shu kishi nutqining o'sishi bilan barobar bo'lganidek, shu kishi nutqining o'sishi ham udagi tafakkurning o'sishiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib tafakkur bilan nutq turli hodisalardir, lekin ayni vaqtida bu 2 hodisa bir-biri bilan chambarchas bog'langan, bir-birini taqozo qiluvchi va bir-biridan tashqarida o'sa olmaydigan hodisadir.

Psixologiya fanida tafakkurning quyidagi turlari ajratilladi:

- 1- Ko'rgazmali harakat
- 2- Ko'rgazmali –obrazli

3-Mavhum (nazariy) tafakkur

TAFAKKURNING SIFATLARI

Tafakkur jarayonining quyidagi fikrlash operatsiyalari mavjud:

1-Analiz-yunoncha parchalash, bo'lish, tahlil qilish narsa va hodisalarni fikran tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat aqliy jarayon. Masalan: psixologiyada ong hodisasi analiz qilinar ekan, u aql iroda, hissiyot deb 3 qismga ajratiladi. Biror o'simlikni o'rghanishda uning qismlarini ildizi, tanasi, shoxi, bargi, guli, mevasi va hokazolarni qismga bo'lib o'rghaniladi

2-Sintez – yunoncha qo'shish, birlashtirish, narsa va hodisalarning tarkibiy qismlari va sifat xususiyatlarini fikran yoki amaliy ravishda bir butun qilib qo'yishdan iborat aqliy jarayondir. Masalan: narsa hodisalarning muhim belgilari qo'shilishidan yaxlit bir tushuncha hosil bo'ladi. Harflardan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan gap, gapdan nutq hosil bo'ladi.

3-Taqqoslash – narsa va hodisalarni bir-bir solishtirish, ular o'rtasidagi o'xshashlik, farq, tenglik va qarama-qarshiliklarni topishdir. Taqqoslash tafakkur jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Taqqoslash har qanday tushunish va har qanday fikrlashning negizidir, dunyodagi hamma narsalarni bir-biri bilan taqqoslasmasdan bila olmaymiz.

4-Umumlashtirish – Tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarining o'xshash, muhim belgilarni shu narsalar to'g'risida bitta tushuncha bo'lib fikran birlashtirish. Masalan, piyoz, kartoshka, karam, sabzi kabilarga xos belgilari "sabzavot" tushunchasi bilan umumlashtiriladi.

5-Abstraktsiyalash – umumiylar va mavhum tushunchalar yordamida paydo bo'ladigan tafakkur jarayoni. BUyumlarning bir qancha xossalardan fikran chalg'ish va qaysidir bitta o'zimiz uchun kerakligini ajratib olish abstraktsiya deyiladi. Masalan rang, kuch, abstrakt tushunchalaridan mosini ajratib olishimizdir.

6-Konkretlashtirish – bevosita idrok yoki tasavvur qilinayotgan narsa yoki hodisalar haqidagi, ya'ni aniq obrazlarga asoslangan tafakkur jarayonidir. Analiz va sintez, umuman tafakkur faoliyat boshqa bir qanday faoliyat kabi hamma vaqt shaxsning qandaydir ehtiyojlariga asoslanadi.

Agar ehtiyojlar bo'lmasa hech qanday faoliyat ham bo'lmaydi. Psixologiyada tadqiqot qilinayotgan tafakkur motivlari 2 turli bo'ladi:

1) O'ziga xos bilish motivlari – bunda tafakkur faoliyatiga undovchi va uni harakatga keltiruvchi kuchlar bilan ehtiyojlari namoyon bo'ladigan qiziqish va motivlar.

2) O'ziga xos bo'limgan motivlar – bunda tafakkur sof bilish bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlar ta'sirida emas, balki ozmi-ko'pmi tashqi sabablar ta'sirida boshlanadi.

XULOSA

Men bugungi maqolani yozish davomida o'zimga quyidagi xulosalarni oldim: Tafakkur ko'pgina fan sohalarining tadtiqot ob'yekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko'rsatish darajasiga ko'ra bir necha turlarga ajratib tadbiq qilinadi. Ijtimiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o'zini o'zi tanqid baholash, tekshirish, nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadordir. Ijodiy ishalr, kashfiyotlar, ixtiolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik, ontogenetic bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o'rghanadi. Hozirgi zamon fanining juda ko'p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonni yanada chuqurrow o'rghanishni taqozo etmoqda.

REFERENCES:

1. "Словарь по истории психологии" 11-sentyabr 2014-yildagi asl nusxasi
2. A.V.Petrovskiy – "Umumiyl psixologiya", 1992-yil
3. Лебедев А. В. – "ПАРМЕНИД". Новая философская энциклопедия 2-fevral 2012-yildagi asl nusxasidan
4. www.wikipedia.Uz
5. P. I. Ivanov - "Umumiyl psixologiya", 1972-yil.
6. A. N. Leonov – "Проблем развития психика"
7. www.ziyonet.uz